

OGAHINYING TARJIMA SAN'ATI – XALQIMIZNING NOYOB MA'ANAVIY BOYLIKLIGI SIFATIDA

O'rozaliyeva O'lmasoy Kubay qizi

TDSHU 1-kurs magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada Ogahiy hayoti va ijodi, shuningdek, u tomonidan tarjima qilingan bir qator durdona asarlar haqida so'z boradi. Ogahiyning tarjimashunoslik sohasidagi buyuk ma'naviy merosi tahlil qilinadi. Tarjima asarlardagi g'oyalarning zamiridagi komil inson, yetuk shaxs va yana bir qator axloqiy ahamiyatga ega tushunchalarga tavsif berilgan.

Kalit so'zlar: tarjima san'ati, hattot, tarixiy, badiiy, taxallus.

Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy XIX asr o'zbek mumtoz adabiyotining yirik nomoyondasi, shoir, tarixchi va tarjimondir. Ogahiy 1809-yil 17-dekabrda Xiva shahri yaqinidagi Qiyot qishlog'ida tug'ilgan. Uch yoshida otasidan yetim qoladi. Shundan so'ng tog'asi xorazmlik mashhur shoir Shermuhammad Avaz o'g'li Munis qo'lida tarbiyalanadi. Ogahiy arab va fors tillarini mukammal bilgan. Ogahiy nomi uning she'riy taxallusi bo'lib, ogohman, sergakman degan ma'nolarni anglatadi. Ogahiy mohir hattot sifatida kufiy, rayhoniy, xatti shikasta kabi xatlarni yaxshi bilgan. Ogahiyning "Ta'viz ul-oshiqin" ("Oshiqlar tumori") devoni juda mashhur. Bu devon 18 ming misra she'r va 83 muxammasni jamlagan bo'lib ham tarixiy, ham badiiy, ham tarbiyaviy tomonlari bilan qiymati baland hisoblanadi. Ushbu devonning kirish qismida aytilishicha Ogahiy quyidagi tarixiy kitoblarning muallifi hisoblanadi: "Riyoziy ud-davla" ("Davlat ishlari", 1825-1842), "Zubdat ut-tavorix" ("Tarixlar qaymog'i", 1846-1855), "Jom'e ul-voqeoti Sultoni" ("Sultonlar voqealari to'plami", 1856-1865), "Gulshani davlat" ("Davlat gulshani", 1865-1872), "Shohidi iqbol" (1872). Ogahiy asarlarining bir qismi o'z davrining hukmdorlariga bag'ishlab yozilgan. Xususan, Ogahiy Olloqulixonga bag'ishlab "Riyoziy ud-davla" ("Davlat riyoziatlari", 1844) asarini yozgan. Bu asarda Ogahiy o'zi to'g'risida shunday yozadi. "Yoshlik chog'larimda, har tarafdin boshimga balo toshi yog'di, hamisha ko'nglimda tinchsizlik va ta'bimda xon hukmi surar edi. Lekin jahondan etgan har xil alamlarni olimlar va shoirlarning suhbatida bo'lish bilan bir oz tarqatar edim". "Zubdat ut-tavorix" 1846 yilda yozilgan bo'lib, Rahimqulixon davriga bag'ishlangan. "Jome' - ul voqeoti Sultoni" 1856 yilda yozilgan bo'lib, Muhammad Aminxon davriga bag'ishlangan. "Gulshani davlat" 1865 yilda yozilgan bo'lib, Sayid Muhammadxon davriga bag'ishlangan. "Shohidi iqbol" ("Iqbol shohidi") asar Muhammad Rahimxon soniy davriga bag'ishlangan. Asarda faqat Xorazm tarixi emas,

Buxoro amirligi va Qo'qon xonlarini Rossiya bilan olib borgan urushlari, bitimlari va uning oqibatlari mukammal ravishda yoritilgan. Adib qalamiga mansub 26 asardan hozirgi kunda 4 tasi topilganicha yo'q, uning asarlarining 22 tasidan 16 tasi saqlangan. Jumladan, 6 asari (11 nusxada) Beruniy nomidagi Respublika Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda. Sank Peterburgda 10 ta va Dushanba shahrida 8 ta asari mavjud. Ogahiyning hayoti ilm-ma'rifat, adabiyot va xalq xizmatiga bag'ishlangan ibratli umr namunasidir. U Xorazm adabiy muhitida yetishib, mumtoz Sharq ilmlari va tillarini puxta egallagan holda, o'z davrining yetuk shoir, tarixchi va tarjimoni sifatida kamol topdi. Ogahiy saroy muhitida faoliyat yuritgan bo'lsa-da, ijodida adolat, haqiqat va insoniy fazilatlarni ulug'lab, zamon muammolariga tanqidiy nigoh bilan qaray oldi. Ogahiy hayoti davomida yaratgan asarlari orqali o'zbek adabiy tilining rivojiga, tarixiy tafakkurning shakllanishiga va xalqimiz ma'naviy merosining boyishiga ulkan hissa qo'shdi. Uning ilmga sadoqati, mashaqqatli hayot sharoitlariga qaramay ijoddan voz kechmagani, ma'naviy yetuklik va sabr-toqat timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan, Ogahiy hayoti bugungi avlod uchun ham ilm, vatanparvarlik va ma'naviy komillik sabog'i bo'lib xizmat qiladi.

Ogahiy jahon adabiyoti, madaniyatining nodir durdonalari sanalgan 20 dan ortiq asarlarni o'zbek tiliga o'girib tarjima qilgan. Tarjima san'ati — bu bir tildagi asarni ikkinchi tilga shunchaki ko'chirish emas, balki mazmun, ruh va badiiy go'zallikni saqlagan holda qayta yaratish jarayonidir. U xalqlar o'rtasidagi madaniy, ilmiy va ma'naviy aloqalarni mustahkamlovchi muhim vosita hisoblanadi. Amakisi Munis tugallay olmay ketgan Mirxondning "Ravzat us-safo" asarining 2-3 jildlarini, Muhammad Mahdixonning "Nodirnama" (5 jild), Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Muhammad Yusuf Munshiyning "Tazkirai Muqimxoniy", Nizomiddin Ahmad Haraviyning "Taboqati Akbarshohiy", Rizoqulixon Hidoyatning "Ravzat us-safoi Nosiriy" nomli asarlari, Nizomiy Ganjaviyning "Haft paykar", Sa'diy Sheroziyning "Guliston", Husrav Dehlaviyning "Haft Bihisht", Muhammad Vorisning "Zubdat ul-hikoyat", Abdurahmon Jomiyning "Yusuf va Zulayho", "Salomon va Ibsol", "Bahoriston", "Xaft avrang" asarlarlari, Badriddin Hiloliyning "Shohu gado", Vosifiyning "Bado'e ul-voqoe" kitoblarini, Kaykovusning falsafa va ahloq masalalariga bag'ishlangan "Qobusnoma" asarini, Husayn Voiz Koshifiyning "Ahloqi Muhsiniy", Imomiddin Fijduvoniyni "Mifot ut tolibin" kitoblarini fors tilidan o'zbekchaga tarjima qilgan. Muhammadrizo Ogahiyning tarjimon ekani haqidagi ilk ma'lumot vengriyalik olim Arminiy Vamberi (1832-1913) tadqiqotida keltirilgan. Arminiy Vamberi Xorazmda she'riyatga bo'lgan katta qiziqish to'g'risida gapira turib, shunday yozadi: "Xivada men ikki aka uka bilan tanishdim. Biri Munis bo'lib, u ajoyib she'rlar yozgan; men ularning ayrimlarini keyinchalik nashr qildirmoqchiman. Ikkinchisi Mirob. U ulkan sabr bilan Mirxondning katta tarixiy asarini o'g'li uchun, garchi o'g'lining o'zi ham fors tilidan

xabardor bo‘lsa da, o‘zbek turkiy lahjasiga o‘girmoqda. Bu ish 20 yil davom etgan, lekin u buni biron kimsa oldida e'tirof etishdan uyalardi, zero diniy ilmlardan boshqasi bilan shug‘ullanish yuzakichilik hisoblanadi”. . Ogahiy fors tilidan o‘n sakkizta va usmoniy turkchasidan bitta asar tarjima qilgan. Bu haqida ma’lumotlar Ogahiy tarjimonlik faoliyati haqidagi ro‘yhatlarda kiritilgan. “Miftoh ut-tolibin” Joni Mahmud shayx Ali ibn Imomiddin al-G‘ijduvoni asari, Ogahiy tomonidan 44 kunda tarjima qilingan yagona nusxadagi asar hisoblanadi. Ogahiy Jomiyning “Yusuf va Zulayho” asarini mahorat bilan o‘zbek tiliga o‘giran. Unda chin insoniy his-tuyg‘ular tarannumi bor. Hiloliyning “Shoh va gado” dostonida odil hukmdor haqidagi g‘oyalarni yetuk badiiy ifoda bilan tarjima qilgan, unga qo‘shimcha ikki bob qo‘shish orqali asar mazmunini yanada boyitgan. Nizomiy Ganjaviy Xamsasining to‘rtinchi dostoni bo‘lgan “Haft paykar” dostoni ham adolatli shoh xususiyatlarini tarannum etadi va bu Ogahiy tomonidan yuksak qiziqish bilan tarjima qilingan.

Xulosa qilib aytganda, Ogahiyning tarjima san’ati o‘zbek mumtoz adabiyotida alohida o‘rin egallaydi. Uning tarjimalari orqali Sharq adabiyotining yuksak axloqiy-falsafiy g‘oyalari xalqimizning milliy tafakkuri va ruhiy olami bilan uyg‘unlashgan. Ogahiy tarjimini oddiy til almashtirish darajasida emas, balki ma’naviy merosni xalq ongiga singdirish vositasi sifatida talqin qilgan. Shoir ijodida tarjima asarlari o‘zbek adabiy tilining boyishiga, badiiy ifoda imkoniyatlarining kengayishiga xizmat qilgan. Ayniqsa, ijodiy tarjima usuli orqali u asarning mazmun-mohiyatini saqlagan holda, uni o‘zbek o‘quvchisi uchun tushunarli va ta’sirchan shaklda yetkazishga muvaffaq bo‘lgan. Bu hol Ogahiy tarjimalarining uzoq davrlar davomida o‘z qadrini yo‘qotmasligiga sabab bo‘lgan. Shu bois, Ogahiy tarjima san’ati xalqimizning noyob ma’naviy boyligi bo‘lib, u nafaqat adabiy-tarixiy ahamiyatga, balki bugungi kunda ham tarbiyaviy va ma’naviy qiymatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.Dolimov. Ogahiyning hayoti va ijodi. -T.: 1963;
2. Q.Munirov. Munis, Ogahiy va Bayoniyning tarixiy asarlari. — T.: 1961;
3. N.Komilov. Ogahiyning tarjimonlik mahorati. — T.: 1970;
4. M.Safarboev. Ogahiyning ijtimoiy-siyosiy va estetik qarashlari. — T.: 1993; 1. Zoxirov V. Ogahiy. T., 1961.
5. Munirov K. Munis, Ogahiy va Bayoniylarning tarixiy asarlari. T., 1960.
6. Mallaev N.M. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. – T.:
7. Adabiyot va san`at, 1974. – 383 b. 4. Adabiyot nazariyasi. 2 tomli. t.I, Toshkent, 1978.